

\*\*\*\*\*

# Do`stlik tuman axborot-kutubxona markazi



JIZZAXLIK ÂDIB NURALI  
QOBUL HAYOTI VA IJODIGA  
BAG`ISHLANGAN  
KITOBXONLARGA  
TAVSIYANOMA

*DO`STLIK SHAHRI-2024*

\*\*\*\*\*

\*\*\*\*\*  
*Tuzuvchi Axborot bibliografiya xizmati bibliografi I.Narbayeva.*



*Nurali Qobul yozuvchilar uyushmasi bilan kitobxonlik haftaligida Do`stlik tumaniga tashrifi. 2023-yil 12-aprel.*


Nurali Qobulovich Xolbo‘tayev; — O‘zbekistonlik tarixchi, yozuvchi, shoir hamda tarjimon.

Nurali Qobul (Nurali Xolbo‘tayev) 1950-yilning 2-yanvarida Jizzax viloyati, Baxmal tumanidagi Usmat qishlog‘ida tug‘ildi. Mirzo Ulug‘bek nomli Farg‘ona davlat pedagogika instituti tarix fakultetida tahsil oldi. Jizzax shahridagi Bobur nomli 22-o‘rtta maktabda o‘qituvchi, (1969–1970), “G‘alaba bayrog‘i” gazetasida bo‘lim boshlig‘i (1971–1973), “Jizzax haqiqati” gazetasida muxbir (1973–1976), “Sovet O‘zbekistoni san’ati” jurnalida bosh muharrir o‘rinbosari, bosh muharrir (1977–1986), “Yulduzcha” nashriyotida bosh muharrir, direktor (1987–1996) vazifalarida xizmat qildi.



Nurali Qobulning “Oyqor” nomli birinchi qissa va hikoyalar to‘plami 1978 yilda nashr etildi. Shundan so‘ng uning “Salom, tog‘lar” (1979), “Tubsiz osmon” (1981), “Yashash uchun kechikma”, “Kaptarlar qaytmagan kun” (1983), “Unutilgan sohillar” (1988), “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” (1992), Yetti iqlim xoqoni yoxud ahd va taxt” (2013) kabi roman, qissa va hikoyalar kitoblari, “Odam, Oyqor tog‘ va daydi shamol” (1980) nomli she’riy ertagi, “Vatandan yaxshi yor bo‘lmas” nomli publisistik maqolalar to‘plami dunyoga keldi.

Nurali Qobul tarjimon sifatida G. Markesning “Tanhilikning yuz yili” romanini, Ch. Aytmatovning “Bolaligim” qissasini ona tilimizga o‘girdi.



\*\*\*  
O‘zining ham roman, qissa va hikoyalari turk va boshqa xorijiy tillarga o‘girgan.

## Ijodi

Nurali Qobulning „Oyqor“ nomli birinchi qissa va hikoyalar to‘plami 1978-yilda nashr etildi. Shundan so‘ng, uning „Salom, tog‘lar“ (1979), „Tubsiz osmon“ (1981), „Yashash uchun kechikma“, „Kaptarlar qaytmagan kun“ (1983), „Unutilgan sohillar“ (1988), „Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar“ (1992), „Yetti iqlim xoqoni yoxud ahd va taxt“ (2013) kabi roman, qissa va hikoyalar kitoblari, „Odam, Oyqor tog‘ va daydi shamol“ (1980) nomli she’riy ertagi, „Vatandan yaxshi yor bo‘lmas“ nomli publisistik maqolalar to‘plami dunyoga keldi. Yozuvchi hamda shoirlik ist’edodlaridan foydalangan ijodkor 7 kitobdan iborat tarixiy-siyosiy mavzuga doir roman-pamflyot ham yaratgan. Roman-pamflyot tarkibiga quyidagi kitoblar kiradi:

- „Sukut suiqasdi, yohud Stalindan Saddamgacha“
- „Sukutdan so‘nggi suiqasd, yohud Chingizzondan Cherchilgacha“
- „Tavqi la’nat tamg‘asi (2019)
- „Dordan qochgan daho“
- „Stalinning super jallodi“
- „Stalinning super josusi“
- „Davlat to‘ntarishi“
- 

## Kitoblari

- „Oyqor“ (1978)
- „Salom tog‘lar“ (1979)
- „Odam, Oyqortog‘ va Daydi shamol haqida ertak“ (1980)
- „Tubsiz osmon“ (1981)
- „Kaptarlar qaytmagan tun“ (1984)
- „Yashash uchun kechikma“ (1985)
- „Unutilgan sohillar“ (1988)
- „Oq kaptarlar“ (1990)
- „Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar“ (1992)
- „Sen vatansan, muhabbat“ (1994)
- „Vatandan yaxshi yor o‘lmas“ (1995)
- „Yangi qor tushgan kun (?)“
- „Sening bolalik osmoning“ (?)

## NURALI QOBUL. KECHAGI KUN (HIKOYASIDAN PARCHA)

Yillarga cho‘zilgan tanaffudan so‘ng biz bog‘ hovlidagi durkun o‘rik daraxti soyasida suhbatlashib o‘tirar edik. Har ikkimizning so‘z ohangimiz va yuz qiyofamizdan bu ko‘rishuvdan mammunlik hissi aks etib turardi.

— Biz ham ikki yumalab tijoratchi bo‘lib qoldik, aka, — dedi Tolibjon hozirgi xizmatidan uyalganday va bu o‘ng‘aysizlikdan qutulish uchun gap mavzusini boshqa tomonga burarkan. — Sizning bir maqolangizni o‘qigan edim. Rassom Ro‘zi Choriev Stokgolmda ochilgan ko‘rgazmasida Andrey Saxarovning xotini Yelena Bonnerning qo‘lini o‘pganligi uchun qora ro‘yxatga tushgan ekan. Mening boshimdan ham shunga o‘xshash bir g‘alati voqeа kechgan. Saksoninchi yillarning o‘rtalari edi, — deya tomonq‘ini qirib qo‘yib hikoyasini boshladi suhbatdoshim...

...Xonqo‘riqda yosh-u qari, barcha birdek yaxshi taniydigان, yoshi o‘tib qolganiga qaramay, o‘zini qizlarday tutadigan serkarashma, nafaqachilar va yosh bolali ayollarning xaloskori, aloqa bo‘limining mudirasi Flora Fayzievna xuddi shaharlik artistlar kabi po‘rim kiyinadigan Tolibjoni iliq kutib oldi.

— Obuna munosabati bilan bir sizga uchrashay degan edim, — deya murojaat qildi Tolibjon mudira ish stolining qarhisidagi eski kursiga omonatgina o‘tirar ekan.

— Pionervojatiylaringiz Tursunali allaqachon maktab bo‘yicha obunani tugatgan edi. Nima, siz ulgurmadingizmi?

— Respublika va ittifoq nashrlariga yozildim. Biroq men istagan nashr obunasi bevosita aloqa bo‘limlari orqali amalga oshirilar ekan, — dedi Tolibjon maqsadga ko‘chib. — Yaqinda malaka oshirish uchun Rigaga borgan edik. O‘sha yerda ikki dona jurnal qo‘limga tushib qoldi. Boshidan oxirigacha o‘qib chiqdim. Yozilgan narsalarining barchasi biz uchun yangilik. Kichik bir maqoladan ham odam bir nima oladi, — taassurotlarini maroq bilan hikoya qila boshladi Tolibjon.

Flora Fayzievna esa borgan sari sergaklanib, qo‘lidagi ruchkasini o‘ynagancha diqqat bilan rus tili muallimining hikoyasini tinglar edi.

— Qanday jurnal ekan u? — deya so‘radi u nihoyat sabri chidamay.

— “Amerika” jurnalı — javob qildi Tolibjon o‘sha hayajonli ohangda. — Uning yarim hajmida “Angliya” degan jurnal ham bor ekan. Biri-biridan qiziqarli va juda sifatli qog‘ozda chop etilgan...

— Istagizingizni tushundim, domla, — muallimning so‘zini kesdi mudira chuqur nafas olarkan. — Ertaga javobini aytaman, — deya gapni kalta qildi.

## NURALI QOBUL. BULAR ELNING BOLASI (PARCHA)

Tong otar, kun botar, umr o'tar edi...

Turkiston tizmalari etaklariga bu sana kuz kech kirdi. Dastlab yong'oq yaproqlari sarg'ayib, kuzdan ilk mujda berdi. Sariqdan qahva tusiga kirgan barglar salqin mezon epkinlarida chirt-chirt uzilib, ona og'ochdan uzoqlashar, shamol uni kuchi yetgunga qadar uchirib ketar edi.

Azamat yong'oqlarga havas bilan qarab turgandek ko'kka bo'y cho'zgan zardolilar avval sarg'ish, so'ngra oltinrang qizg'ish tusga kirgan barglarini yana bir ikki haftacha tutib turadigandek qilt etmasdi.

Turnalarining issiq o'lklalar tomon yo'lga tushishlariga hali bir oz vaqt bor, qarg'alar esa hademay qish kelishidan darak berib, haydov bo'lib qolgan bedapoya va angorlarda bemalol lapanglashishar, viqor bilan to'rt tarafga qarab qo'yib, yer cho'qilashardi.

Odatdagidek erta turib, bomdod namozini o'qigan amir Muhammad Tarag'ay Bahodir hovliga chiqib naridan beri yurarkan, ko'chadan kirishda, sog' tarafdag'i xonada ixlos va e'tiqod bilan namoz niyatini qilayotgan o'n to'rt yoshli o'g'li Temurning xatti-harakatini kuzatgancha, joyida turib qoldi. Amir bu yaqin vaqt orasida bunchalik mehr-muhabbat bilan yaratganga iltijo qilgan kishini uchratganini eslay olmadi. Nigohi tushgan holat va manzaradan shu qadar ta'sirlandiki, beixtiyor bo'g'ziga xo'rsiniq kelib, ko'zi yoshovladi.

— Egamga shukr! Avlodimning qalbiga shul qadar Olloh mehr-muhabbatni solganiga shukr! Inshoolloh bunday e'tiqodli farzand hayot yo'lida adashmagay! O'zing shafqatingdan darig' tutma, Egam! Elu ulus barobarida bizni ham yorlaqagin! Lo iloha illololoh, ashshuadanan Muhammadur rasululloh!

Amir ohista so'zlarkan, yuziga fotiha tortdi. Barmoqlari beixtiyor ko'z yoshlari artib ketdi. So'ngra, qo'lro'molchasini olib, kuz tongining salqinidan yoshlangan ko'zlarini artayotgandek bo'ldi.

— Assalomu alaykum, qiblagoh!

— Vaalaykum assalom, avlodim! Olloh ibodatingni qabul etsin! — dedi o'ng qo'lini ko'ksiga qo'ygancha otasiga termulib turgan o'g'li Temurbekka qarab.

— Yaratgan Ollohim shu beg'ubor tongda pok yurak ila qilgan iltijolaringizni qabul etsin! Barcha qatori bizni ham mehr-muruvvatidin darig' tutmasun! Omin!

Ota-o'g'il barobar yuzlariga fotiha tortdilar. Sochlariga oq oralab, polvonsifat yelkalari ixcham tortgan, uzun-uzun qo'llarining tomirlari o'ynab, qiyofasida keksalik alomatlari ko'rinish qolgan amir shunday deya beixtiyor bosh farzandini ohista bag'riga bosdi. Yana ko'ngli to'lib ketdi. O'g'il ham otasini bag'riga bosgancha sukut saqlab turar edi.

— Voy, saharmardondan bir-birini bag‘riga bosgan ota-boladan aylanayin! Hovliga chiqqan Tegina xonim ota-bolaning bu holatini avval tushunmay, bir lahma sukul qilgan, ma’nisiga yetgach, mehri tovlanib ketgan edi. Odam bolasi ham bu qadar mehr-muhabbatli bo‘ladimi?!


Voy ko‘zlarining dardini olay Temur bolam! Otaginasining yagona orzu-umidi, armoni! Tangrim yomon ko‘zlardan asrasin seni!

Tegina beginning bu iliq va allalovchi so‘zлari ular ruhiyatidagi holatga shu qadar mos ediki, onasi yana bir oz shu ohangda so‘ylasa Temurning ichidan to‘lib toshgan bir yig‘i bo‘g‘zidan otilib chiqadigandek edi.

— Safar oldidan ota-bola bir-birimizni bag‘rimizga bosdik-da, enasi. Inson zoti bir-birini sog‘inib yashamas ekan, uning hayotida zavqu shavq qolmaydi, — dedi amir xonimning so‘zlariga javob qilgan bo‘lib hamon ro‘molchasi bilan ko‘z yoshlarini artarkan.

— Otang o‘zi shunaqa, bolam! Ko‘ngli bo‘sh. Sal narsaga ko‘zining yoshi oqib ketaveradi. Lekin sen otangga o‘xshama! — Tegina xonim tabiatan ziyrak va zukko, gapga chechan bo‘lsa-da, ko‘p gapiravermas, eri, nozikta‘b Tarag‘ay Bahodirning ko‘ngliga xush yoqadigan paytlardagina ochilardi. — Ko‘ngilchang bo‘lsang, hamma narsadan quruq qolasan. Mana otang, beklikka xon famonini ola turib, uni birovga berib o‘tiribdi! Bu kishim bilgan qon-qarindoshlikni ular hisobga olishgani yo‘q!

— Qo‘y, enasi, bunaqa gaplarni! — Tarag‘ay Bahodir o‘g‘lining oldida xijolat chekib, xotiniga tanbeh berdi-yu, lekin uning gaplaridan og‘rinmadni, qaytaga o‘g‘li bilan shu mavzuda suhbatlashish imkonni tug‘ilganidan xursand bo‘ldi. — Xudo rizqingni butun qilsa bekmisan, amirmisan farqi yo‘q. Muhimi, xudo yarlaqamoqdan qo‘ymasin! Yaxshisi, bizga nonushta hozirla. Bekzoda o‘g‘ling bilan bir Atabek amakimizni ko‘rib kelaylik. Ancha bo‘ldi ko‘rismaganimizga. Hozir yo‘lga chiqsak, shom namoziga qadar yetib borsak ajab ermas...





#Nurali Qobul kitoblaridan estaliklar va iqtiboslari.



#Sukut suiqasdi Stalindan Saddamgacha  
Kishi o'lgandan so'ng u haqdagi haqiqat aytiladi.

#Tarix - xulosa chiqarilmagan fofia va falokatlarning takrorlanishidir.

#"*Inson farishta ham emas, hayvon ham. Uning baxtsizligi shundaki, u qanchalik farishtaga aylanishga harakat qilsa, shunchalik ko'p hayvonga aylanadi*".

#Ilmsiz din-ko'r, dinsiz ilm-cho'loq deydilar.  
Biroq haqiqiy ilm-fan, o'sishu taraqqiyot bilan din ayri-ayridir.

#"*Agar tarix sahnasida arab paydo bo'lmanida Yevropaning uyg'onishi bir necha asrlarga orqaga surilar edi. Arablarning tarjimalari Yevropa universitetlarida olti asr davomida yagona o'quv qo'llanma bo'lib kelgan*".

#esdaliklardan

...*Samarqanddagi harbiy omborxonada qat'iy tartib o'rnatilgan. Faqat meni Temurlang taxtining usti har xil artilleriya qurollari bilan to'ldirib tashlanganligi ajablantirdi. Binoning tomi saqlangan. Axir, bu buyuk o'tmish va tarixiy muqaddas narsaku! Uni albatta asrash kerak. Binoning Ko'ktosh turgan qismiga maxsus muzeysimon inshoot qurish lozim. Unga alohida eshik qurilib, barcha tashrif buyuruvchilarni va xorijliklarni kiritish kerak.*"

Rossiya imperiyasi harbiy ministri general Kuropatkining Imperator Nikolay Romanovga yozgan hisobotidan. 1905-yil. Samarqand.

#Tarixning birinchi vazifasi - yolg‘on gapirmaslik, ikkinchisi - haqiqatni yashirmaslik, uchinchisi - noxolis bo‘lmaslikdir.

#Ma‘lumingizkim, aql ikki xil bo‘ladi. Birinchisi nekbin, yani har narsaning yaxshi tomonidan ko‘rvuchi, kelajakka ishonuvchi optimist, gumanist, barchaga xayrixoh, yaxshilik tilovchi aqldir.

Ikkinchisi esa xudbin, yani o‘zini, o‘z manfaatini hammadan ustun qo‘yuvchi xudbin, yovuz zakodir. Bundaylarni yovuz daho ham deydilar.

Xudbin aql darajasi yuksak bo‘lgan kishilar hokimiyat tepasiga keldilarmi tamom, xudo urdi deyavering. Ular borgan sari razillashib takabburlik taxti sari shaxdam odimlayveradilar.

#Tarixiy tajriba va bevosita kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, biz yashagan amirliklar, bekligu hukumatlarda tepaga kim kelmasin, atrofiga es-hushi butun, soglom tafakkuru mustakil fikrlash saloxiyatiga sohib haqiqiy barkamol shaxslarni to‘plamaganlar.

Buning sababi bor, albatta. Aklli va iste’dodli kishilarni yig‘ib yo‘naltirish hamda boshqara bilish uchun undan hech bo‘lмагanda bir bosh ustun bo‘lmok kerakdir.Dono ma’mur oxir-okibat nodon amirning noto‘g‘ri amri farmonlariga quloq solmasligi, e’tiroz bildirishi mumkin. Shuning uchun ham johilu nodonlar oqilu donolardan azroildan qo‘rqan kabi cho‘chiydar.

#Халойик тўрт нав бўлур, бири улким, билур ва билғонин ҳам билур. Ул олимдур, унга тобе бўлмоқ керакдур. Бири улдурким, билмас ва билмағонин билур, ул кобилдур, унга ўргатмоқ керак. Бири улдурким, билур ва билғонин билмас ул уйқудадур, уни бедор килмок керакдур. Яна бири улдурким, билмас ва билмогонин ҳам билмас, ул жоҳилдур, ундин кочмок керакдур.

#Tarixchi, siyosatshunos, huquqshunosu faylasuflar esa siyosatu siyosatchi haqida o‘zgacha tasavvurga ega bo‘ladilar.

Deyarli barcha dohiylaru dohiylikka da’vogarlar, prezidentu bosh vazirlar o‘z fikru faoliyatları aks etgan kitoblar nashr ettirganlar va xotiralarini yozib qoldirganlar.

Siz ular bitgan kitob yoki ularning nomidan yozilgan dokladlardan iborat to‘plamlarni o‘qib, muallifning fikrlash darajasi, aqli idroki, tasavvuru tafakkur olamining ufqini, tovonu tobonini his etasiz, anglaysiz. Deylik, "Ruhnoma" degan bitikni o‘qir ekansiz, muallif deya muqovada qayd etilgan kitobni yoza olmasligiga ishonch hosil qilasiz. Bitikning katta bir tarixchilar guruhining mehnati ekanligini anglaysiz. Marks,

Engels va Leninlarni o‘qir ekansiz, bu asarlar amalga oshmayajak xayoliy bir g‘oyalardaniborat o‘ta zerikarli ilmiy izlanishlar ekanligini tushunasiz.Biroq Maxatma Gandhi, Javoharlal Neru, Mustafo Kamol Otaturk, Jorj Washington, Teodor Ruzvelt, Uinston Cherchill va FransuaMitteranlarning kitoblarini o‘qib maza qilasiz. Bu kitoblarda hayot, mantiq va falsafa borligi uchun undan nimadir olasiz. Qoloq va rivojlanishi kerak bo‘lgan mamlakatlarga aynan ana shunday yo‘lboshchilar kerakdir.

Rivojlangan, taraqqiyot yo‘liga tushib olgan Yevropa va AQSH kabi davlatlar esa ravon va tekis temiryo‘lda ketayotgan poyezd eshelonidir.Bu parovozga esa xuddi kosmonavt kabi aqli ruhiyati joyida bo‘lgan, tartib-intizomli bir mashinist kerak, xolos. U daho yo‘lboshchi bo‘lishi shart emas.Bu mashinistlar Brejnev u Clinton kabi Afg‘on urushini o‘t oldirmasalar, Bush ikkinchi kabi Iroq savashini boshlamasalar va Obamadek arab bahorini arab qahratoniga aylantirmasalar bas.Aks holda o‘sha eski, otalar so‘zidagi hikmat boshga tushadi. Davlat boshga emas, quzg‘un LOSHga qo‘naveradi.

SSSR va AQSH degan dunyoga hukmronlik da’vosidagi ikki katta davlatning talashib-tortishuvi afg‘on xalqining qonu joniga mol bo‘ldi.

## Nurali Qobulning

#Suiqasddan so‘nggi sukut yoxud Chingizzondan Cherchillgacha nomli roman-pamfletidan olindi

Manbalar:

[https://t.me/nurali\\_qobul\\_kitoblari](https://t.me/nurali_qobul_kitoblari)

1. *Mirvaliyev, Sobir. O’zbek adiblari Fan nashriyoti, 1993 — 145 bet.*
2. N „Nurali Qobul (1950)“. Qaraldi: 13-avgust 2022-yil.
3. Nurali Qobul-“Salom tog‘lar“. Qaraldi: 13-avgust 2022-yil.
4. Nurali Qobul — Tubsiz osmon“. Qaraldi: 13-avgust 2022-yil.

- \*\*\*\*\*
5. Nurali Qobul-Kaptarlar Qaytmagan tun“. Qaraldi: 13-avgust 2022-yil.
  6. „Nurali Qobul — Yangi qor tushgan kun (qissa)“. Qaraldi: 13- avgust 2022-yil.
  7. „Nurali Qobul — Sening bolalik osmoning“. Qaraldi: 13-avgust 2022-yil.
  8. Nurali Qobul „Nurali Qobul — Temurshunoslikni temirchilikka aylantirib qo‘ydik“.Qaraldi: 13-avgust 2022- yil.

**QO`SHIMCHA MA`LUMOT:**

**AGARDA SIZNI NURALI QOBULNING ASARLARI  
QIZIQTIRSA, ULARNI MUTOLAA QILMOQCHI BO`LSANGIZ,  
MARHAMAT KUTUBXONAMIZDA YOZUVCHINING BARCHA  
ASARLARI BOR KELIB MUTOLAA ZAVQIDAN BAHRAMAND  
BO`LISHINGIZ MUMKIN.**

Do'stlik takm.biblic.

